

## **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining 2016 yil 1-chorak yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari natijalari to‘g‘risida ma‘lumot**

### **Test topshiriqlarini tayyorlash, sinovlarni tashkil etish va o‘tkazish ishlari**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha 2015 yil 15 oktyabrdan 2016 yil 15 yanvarga qadar Mudofaa vazirligi buyurtmasiga asosan **116026** (2015 yilda 116000) nafar muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilar uchun test sinovlarini o‘tkazish tashkil qilindi. Test sinovlari uchun ekspertizadan o‘tkazilgan test topshiriqlari asosida individual variantda test topshiriqlari tayyorlandi. Mudofaa vazirligi bilan kelishilgan reja asosida test sinovlari o‘tkazildi.

**18971** (2015 yil 19438) nafar muddatli harbiy xizmatni tugatayotgan harbiy xizmatchilar jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik darajasini, mantiqiy fikrlash salohiyatini aniqlash bo‘yicha test sinovlari tashkil qilindi, test sinovlari uchun ekspertizadan o‘tkazilgan test topshiriqlari asosida individual variantda test topshiriqlari tayyorlandi, reja asosida test sinovlari o‘tkazildi, natija hisoblanib tegishli vazirliklarga taqdim etildi.

Ta'lim to‘g‘risidagi hujjatlarni nostrifikatsiyalash uchun hujjat topshirgan nomzodlar uchun test sinovlariga **403** ta test topshiriqlari tayyorlandi, test sinovi o‘tkazildi va natijalari hisoblandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o‘rinbosarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha yordamchilari, tuman va shaharlar hokimlarining mintaqaviy seminarlarining yakuniy test sinovlariga **260** ta test topshiriqlari tayyorlandi, test sinovi o‘tkazildi va natijalari hisoblandi.

**20** ta akademik litsey attestatsiyadan o‘tkazish uchun **4396** ta, **37** ta kasb-hunar kollejlarning attestatsiyadan o‘tkazish uchun **8694** ta, **8** ta oliy ta'lim muassasalari attestatsiyadan o‘tkazish uchun **11842** ta test materiallari tayyorlandi.

Xalq ta'limi tizimidagi umumta'lim maktablari pedagog kadrlardan malaka test sinovi uchun **56547** ta test materiallari tayyorlandi.

### **Ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish ishlari**

Umumiy o‘rta ta'limi muassasalaridan attestatsiyaga jalb etiladigan **81312** nafar pedagog kadrlar ro‘yxati va ularning bilim darajasi hamda pedagogik ko‘nikmalarini aniqlash uchun test topshiriqlari bazasi shakllantirildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent xalq ta'limi Bosh boshqarmasiga 2015 yil noyabr-dekabr oylarida attestatsiyadan o‘tgan hamda oliy, birinchi, ikkinchi malaka toifalariga ega bo‘lgan **15531** nafar pedagog kadrlar uchun sertifikatlar taqdim etildi.

Umumiy o‘rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining attestatsiyasini joriy yil mart-iyun, oliy va birinchi hamda mazkur malaka toifalariga da'vogar **56547** nafar pedagog kadrlarning malaka sinovlari mart-may oylarida o‘tkazilishi belgilandi.

### **Ta'lim muassasalarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish ishlari**

Rejaga muvofiq hisobot davrida **7** ta oliy ta'lim muassasasi, **20** ta akademik litsey va **18** ta kasb-hunar kolleji, **232** ta maktabgacha va **558** ta umumiy o‘rta ta'lim muassasasi attestatsiyadan o‘tkazildi.

Akkreditatsiya komissiyasining qaroriga muvofiq joriy yilda **229** ta maktabgacha, **555** ta umumiy o‘rta ta'lim muassasasi va **2** ta kasb-hunar kolleji akkreditatsiyalandi.

### **Respublika oliy ta'lim muassasalari reytingini baholash ishlari**

Respublika oliy ta'lim muassasalarida asosiy shtatda faoliyat olib borayotgan 22 mingga yaqin professor-o‘qituvchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasi yaratildi.

Professor-o‘qituvchilarni “Xorijiy tillar” va “Axborot kommunikatsiya texnologiyalari” bo‘yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida “Chet tili bo‘yicha test topshiriqlar strukturasi” hamda “Kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish dasturi” talablari doirasida test savollari bazasini yaratish uchun tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Buning uchun yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan taqdim etilgan test savollari bazasi mutaxassislar jalb qilinib ekspertiza qilindi.

Test sinovlarini o'tkazish maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda qo'shma buyruq loyihasi tuzildi. Test sinovlari 2016 yil aprel oyida o'tkazilishi rejalashtirildi.

### **Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash ishlari**

Vazirlar Mahkamasining nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasi ishchi organi sifatida joriy yilning hisobot davrida **29** ta maktabgacha ta'lim, **3** umumiy o'rta ta'lim, **97** ta kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda **20** ta maktabdan tashqari ta'lim turlari bo'yicha jami **150** ta litsenziya talabgorlarining tegishli hujjatlari qabul qilinib, o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqildi.

Hisobot davrida Vazirlar Mahkamasining nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasining tegishli qarorlari bilan **11** ta maktabgacha ta'lim, **26** ta kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, **6** ta maktabdan tashqari ta'lim, **5** ta umumiy ta'lim turlari bo'yicha jami **48** ta nodavlat ta'lim muassasasiga tegishli litsenziyalar rasmiylashtirib berildi. Shuningdek, **7** ta yuridik shaxsning mavjud litsenziyasi qayta rasmiylashtirildi va **19** ta litsenziya bitimiga o'zgartirish (qo'shimcha)lar kiritildi. **95** nafar litsenziya talabgorining hujjatlari ekspertizadan o'tkazilib, ekspertiza xulosalari va komissiyaning majlisi bayoni loyihasi komissiyaga taqdim etildi.

### **Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish ishlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 19 aprelda "Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash shartlarini tartibga solish to'g'risida" 1994 yil 29 sentyabrda 490-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 109-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 dekabrda "Chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikat berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 352-sonli qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida joriy yilning 1-choragi davomida chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikat berish maqsadida o'tkaziladigan test sinovlari uchun ingliz, nemis, fransuz, koreys, turk, yapon, xitoy va arab tillari bo'yicha B1, B2 va C1 darajalari uchun yangi formatdagi test topshiriqlar varianti tuzildi.

Chet tillari o'qituvchilariga ustama hak belgilash maqsadida joriy yil 1-chorakda **4581** nafar o'qituvchilar test sinovidan o'tkazildi, test sinovi natijasiga muvofiq **708** nafar jumladan **543** nafar xalq ta'limi tizimidagi, **151** nafar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi, **14** nafar oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchilarga muvaffaqiyatli o'tganliklari haqida ustama haq olish huquqini beruvchi ma'lumotnomalar berildi.

Chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash hamda davlat namunasidagi malaka sertifikat olish maqsadida 1-chorak davomida **88** nafar talabgorlar ariza bilan murojaat qildi. Test sinovlari natijasiga muvofiq talabni bajargan **43** nafar, jumladan **32** nafar ingliz tili bo'yicha, **5** nafar arab tili bo'yicha **2** nafar koreys tili bo'yicha, bir nafardan nemis, yapon, turk va xitoy tillari bo'yicha talabgorlarga chet tilini bilish darajasi haqida davlat namunasidagi malaka sertifikat berildi.

Chet tillari o'qituvchilariga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida xalq ta'limi vazirligi bilan xamkorlikda test sinovi natijalari tahlili asosida videoseminar o'tkazildi.